

TILSHUNOSLIKDA ZONIMLARNING O'RGANILISHIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR

Umid Abdullayev Husniddin o'g'li

Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

E-mail: [Umidjon1994.55.@gmail.com](mailto:Umidjon1994.55@gmail.com)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida keng o'rganilmagan onomastikaning tarmoqlaridan biri zoonimlar haqida mulohazalar bildirilgan. Zoonimlarning milliy va jahon tilshunosligida o'rganilishi, ularning tilshunoslik uchun ahamiyati, bu sohaning murakkab, ayni paytda ko'pchilik uchun qiziqarli jihatlari hamda tilshunos olimlarning bu sohada amalga oshirgan ba'zi ilmiy ishlaridagi muhim jihatlarga e'tibor qaratildi.

Kalit so'zlar: onomastika, zoonim, zoologiya, ornitologiya, antonomim, pantonim, zooantroponozlar, zoogigiya, zoopsixologiya, psixika, terminalogiya.

ABSTRACT

This article comments on zoonyms, one of the branches of onomastics not widely studied in Uzbek linguistics. The study of zoonyms in national and world linguistics, their importance for linguistics, the complex and interesting aspects of this field, as well as some important aspects of the scientific work of linguists in this field, were paid attention to.

Keywords: onomastics, zoonym, zoology, ornithology, anthonym, pantonym, zooantroponosis, zoohygiene, zoopsychology, psyche, terminalology.

KIRISH

Tilshunoslikda "nom berish san'ati" ma'nosini bildiruvchi grekcha onomastika termini "tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarini o'rganadigan sohasi" tushunchasini ifodalaydi. Ko'rinadiki, onomastika haqidagi bilimlarni egallash atoqli otlar haqidagi ma'lumotlarni o'rganishdan boshlanadi. Bu haqdagi dastlabki ma'lumotlar umumta'lim maktablari uchun mo'ljallangan darsliklarda qayd etilgan. Bugungi kunda terminologik tadqiqotlarni yanada kuchaytirish, terminologiyaning nazariy muammolariga alohida e'tibor qaratish, terminologik lug'atlar tuzish va nashr etish ishini yo'lga qo'yish masalalarini hal qilish ko'rsatilgan vazifalarni bajarish sari qo'yilgan qadam hisoblanadi.

Onomastik terminlarning mazmun – mohiyatini o'rganish, ularning badiiy asarda qo'llanish xususiyatlarini izohlash va tadqiq etish bugungi kun uchun dolzarbdir.

Tilshunoslikda “nom berish san’ati” ma’nosini bildiruvchi grekcha onomastika termini “tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarini o’rganadigan sohasi” tushunchasini ifodalaydi. Ko’rinadiki, onomastika haqidagi bilimlarni egallash atoqli otlar haqidagi ma’lumotlarni o’rganishdan boshlanadi. Bu haqdagi dastlabki ma’lumotlar umumta’lim maktablari uchun mo’ljallangan darsliklarda qayd etilgan. Ularni keng o’rganish, ilmiy asoslash hamda nomshunoslikning qator sohalarini batafsil tahlil etish, ularni til nuqtayi nazaridan baholash, ma’lum tushuncha va terminlarni izohlash tilshunos olimlarning dolzarb vazifalaridan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tilshunoslikning muhim sohasi bo’lgan onomastika, asosan, beshta yirik-yirik bo’limdan iborat bo’lib, ular xalqaro miqyosda ham deyarli bir xil terminlar (ayrim fonetik o’ziga xoslik bilan, albatta) bilan atalib kelinmoqda. Maqolani yozishda, tarixiy-diaxronik, qiyoiy-tipologik, bir qancha mabalarga tayanib ma’ruza qilish, tarmoqlash kabi metod va usullarga tayanilgan holda yozildi.

1) antroponimiya: antroponimlar majmui: antroponim (grekcha antropos- “odam kishi”+onim “onoma”- “nom, ism”)- “insonga berilgan har qanday nom”, masalan, ism, familiya, otaning ismi, laqab, taxallus kabilar (masalan, Karim, Erkinov, O’rinovich, Muhammad o’g’li Yusuf va boshqalar)

2) toponimiya-toponimlar majmui; toponim (grekcha topos: 1. “joy”, 2. “viloyat, o’lka, yurt”, 3. “fazo, bo’shliq”+onim) tabiiy, shuningdek, Yerda inson tomonidan yaratilgan muayyan hududda aniq qayd etilgan obyekt (shahar, qishloq, viloyat, mamlakat, ishlov berilgan yer uchastkasi kabilar) nomi (masalan, Buxoro, Qashqadaryo, Guliston va b.);

3) etnonimiya- etnonimlar majmui; etnonim (grekcha etnos- “xalq”+onim)-“har qanday millat, xalq, qabila, urug’, elatning turdosh nomi” (mas. O’zbek, qozoq, qirg’iz va b.);

4) kosmonimiya- kosmonimlar majmui; kosmonim (grekcha kosmos- “fazo, bo’shliq”)-fazodagi, osmonu kokdagi obyektlar, yulduzlar, galaktikalar, metioritlar, sayyoralar va boshqalarning nomi (mas. Yetti qaroqchi, Tarozi, Oy, Quyosh, Somon yo’li va b.);

5) Teonimiya-teonimlar majmui; teonim (grekcha-teos- xudo; avliyo)-har qanday dinda atalib kelinayotgan xudolar, avliyolar va hokazolarning nomi (masalan, Zevs, Afrodita, Zangiota va b.).

O’zbek tilidagi atoqli otlarning lug’aviy tizimi nihoyatda boy va serqirra bo’lib, uning ba’zi tiplari qoniqarli o’rganilgan. 1960 - yillardan keyingi davrda O’zbekistonning bir qator viloyatlari, tumanlari hududidagi joy nomlari T.Nafasov, S.Qorayev, Z.Do’simov, L.Karimova, J.Latipov, T.Rahmatov, N.Oxunov, SH.Qodirova, X.Xolmo’minov, S.Naimov, T.Enazarov, A.Zokirov, A.Otajonova,

Yo.Xo‘jamberdiyev va boshqalar tomonidan monografik tarzda tadqiq qilindi. [3;120]

O‘zbek tilshunosligida onomastika, antroponimika kabi masalalarga ko‘proq professor E.Begmatov va uning shogirdlari amalga oshirgan maxsus tadqiqotlari fan ahillari tomonidan bahsli holatlarda bo‘lsa hamki, e’tirof etilmoqda [1;17-21] va [2;33-38].

Bu borada, ayniqsa, E.Begmatov, G‘.Sattorov, N.Husanov, M.Norqulova, S.Rahimov, R. Nuriddinovalarning monografik tadqiqotlarini ta’kidlash o‘rinlidir.

Ta’kidlash lozimki, onomastikaning keltirib o‘tilgan har bir tarmog‘i nomlanish obyektiga qarab yana qator tushunchalarni ifodalovchi o‘ziga xos terminlar bilan ish ko‘radi. Masalan, toponimiya tarmog‘ini olib ko‘raylik. Kuzatishlar tarkibida yigirmadan ortiq obyektни ifodalovchi termin mavjudligi ma’lum bo‘ldiki, ular quyidagilardan iboratdir: astionimlar (shaharlarning nomlari:Toshkent, Navoiy, Qarshi, Yangiyer kabi);okeanonimlar(okeanlar va ularning qismlari nomlari: Tinch okeani, Shimoliy muz okeani); pelagonimlar(dengizlar va ularning qimlari nomlari: Orol, Kaspiy, Boltiq, Fin qo‘ltig‘i); limonimlar(ko‘l, suv havzasi, suv ombori, hovuz kabilarning nomlari: Issiqko‘l, Balxash, Baykal va b.); pantamonimlar(har qanday daryo va jilg‘alarning nomlari: Sirdaryo, Zarafshon, Norin). Suv bilan bog‘liq bo‘lgan obyektlarning nomlarini umumiy tarzda ifodalash maqsadida gidronim(grekcha gidro-“suv”+oni m) terminidan foydalanish qabul qilingan. Zoonim (zoo.+yunoncha:onyma – nom, ism) hayvon nomlari bilan so‘zlar, Atoqli otlardan toponim va antroponimlar, astronom va zoonimlar bo‘yicha faktik materiallar to‘plandi [4;159].

Zoonim-hayvon va qush nomi. Zoonimiya – hayvon, qush nomlari jamini ifodalaydi. Zoonimika-fanning hayvon va qush nomlarini o‘rganuvchi bo‘limi. “Zoo... (yun.zoon – jonivor, tirik mavjudot) – qo‘shma so‘z bo‘lagi. Hayvonot olamiga dahldorlikni bildiradi. (masalan, Zoologiya, zoogeografiya)” [5;129].

Bu qo‘shma so‘z orqali bir qancha dunyo ilmida yangicha tushuncha va dolzarb atamalar, o‘rganilishi lozim sohalar paydo bo‘ldi. Bular: Zooantroponozlar – hayvonlar va odamlar uchun umumiy bo‘lgan yuqumli kasalliklarni o‘rganadi; Zoogigiyena – hayvonlar gigiyenasini, sog‘lig‘ini o‘rganuvchi fan; Zoologiya – hayvonlar to‘g‘risidagi fan; Zoopsixologiya – hayvonlar psixologiyasini va psixologiyaning hayvonlar psixikasini o‘rganadi; Zoonozlar – faqat hayvonlarga xos bo‘lgan, ammo hayvondan odamlarga yuqushi mumkin infeksiyon kasalliklarni o‘rganuvchi bir qancha yangi fan tarmaqolari yuzaga keldi [5;129-136-betlar]. Maqolamiz davomida ushbularni tahlil qilishga harakat qilindi.

NATIJAR VA MUHOKAMALAR

Ularni o‘rganish bugungi kun davr talabidir. Mustaqillik yillarida chorvachilik leksikasini, shu jumladan, qush nomlari (ortinonimlar)ni sistem yo‘nalishda o‘rganishga doir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, H. Saidova izohli lug‘atda

umumistemolda bo'lgan hayvon nomlarini berishga doir quyidagi tartibini tavsiya etadi: a) so'zning o'zi(shakli); b) to'g'ri ma'noda semantik struktura(lisoniy ma'no) tavsifi; v) ko'chma ma'no; g) onomastik qo'llanish; d) zoologiya fani nuqtai nazaridan terminologik tavsif. Olimaning fikricha, zoonimlarni izohlashda ana shu tartibga rioya qilinganda, birinchidan, so'z termini (atama)ga zidlanadi; ikkinchidan, keyingi ma'nolarning o'zaro yaqinligi, biridan ikkinchisi hosil bo'lganligi eslatib turiladi. H.Saidova o'zi ishlab chiqqan ana shu tartib bo'yicha burgut, tovus, to'ti, musicha, chumchuq, qarg'a, lochin kabi ornitonimlarning shaxs tavsifi vazifasida qo'llanish xususiyatlarini tahlil qiladi. B. Abdushukurov o'z tadqiqotida qushlar nomini ifodalovchi teminlarni yeti kichik guruhga ajratib tahlil etgan:

1. Yirtqich qushlar nomi: shunqor, boyqush, lochin, yapaloqqush, boyo'g'li, burgut
2. Ma'daniy –landshaft qushlari nomi: chumchuq, kaptar, chitta, sa'va, bulbul, bedana...
3. Suvda yashovchi qushlar nomi: g'oz, o'rdak, oqqush, qashqaldoq, batqaldoq, ...
4. O'rmon qushlari nomi: popishak, kaklik, qirg'ovul, zag'izg'on, tovus va b.
5. Quruqlikning ochiq joyida yashovchi qushlar nomi: turna, tuyaqush, tuvaloq, laylak kabi;
6. Parrandalar(uy parrandalari) nomi: tovuq, xo'roz...
7. Afsonaviy qushlar nomi: semurg' anqo, xumo...

Tilshunos olim B.Zaripov esa o'z nomzodlik ishida to'ti, bulbul, bedana, zog' kabutar, tovus, hudhud, sassiqpopishak, qarg'a, qumri, boyqush singari qush nomlarining A.Navoiy asarlarida sa'j, mubolag'a, tamsil, iyhom, kitobat, nido, ta'did, takrir, tarsi kabi badiiy sanatlarni hosil qilishdagi ishtirokini tahlil qiladi. [7;7-20-betlar].

O'zbek tilida qush nomlari bo'yicha D.X.Bozorovning kitobi, shuningdek, ayrim dialektologik lug'atlarda, ba'zi maqolalarda shu soha bo'yicha yo'l- yo'laay keltirilgan dalillargina mavjud. D,X.Bozorovning kitobida qush nomlari bo'yicha e'lon qilingan maxsus ornitologik adabiyotlarda, adabiy til lug'atlarida, lingvistik adabiyotlarda mavjud bo'lgan qush nomlarining o'zbek adabiy tilida qo'llanilishi hamda bu nomlardagi har xillik, dubletlar, polisemantiklik kabi masalalar o'rganilgan va ularning leksik- grammatik, semantik va qisman etimologik tahlili berilgan. [8; 46].

Tarixiy ornitologiyaga doir ayrim ishlar ham amalgam oshirilgan. Masalan, J. Omonturdiyevning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, Al-Hakim at-Termiziy (859-932) "Hayvonot olami haqida" risolasida yuzlab hayvon va jonivorlarning nomlarini arab alifbosi tartibida, yozib olgan, ularning forsiy, turkey nomlanishini va tarjimasini

keltirgan. Bu esa Al-Hakim at –Termiziyning o‘z davrida mohir tilshunos, zoolog, ko‘p tilning egasi bo‘lganligidan guvohlik beradi.

Masalan, o‘sha risolada qayd etilishicha uznni forsiyda bat, turkiyda o‘rdak deb atashadi. Bayg‘onni forsiyda ham, turkiyda ham to‘ti deb ataladi. Bumni forsiyda chug‘d(chug‘z), turkiyda sorkus (boyo‘g‘li) deb atashur. Hujilni forsiyda kabk, turkiyda anbodini (kaklik) deya nomlashur [9].

Shuni ta’kidlash o‘rinliki, Hakim Termiziyning “Hayvonlar olami haqida” risolasi to‘rt soha (lug‘atshunoslik, zoologiya, fiqh va tabobatchilik) ilmlarini o‘zida jam qilgan chor kitobdir. Bu lug‘atga qancha nom (zoonimlar) kiritilgan bo‘lsa, shuncha hukm va hikmat berilganki, bular islom dunyosi, jumladan, arabiy, eroniy, turkiy xalqlarda lug‘atshunoslik, zoologiya, fiqh va tabobatchiligi fanlari tarixini, etnografiyasini o‘rganishda manbaa bo‘lib xizmat qiladi, ushbu fanlar sohasidagi bilimlarimizni yanada kengaytiradi.

Zoologiyaga doir ko‘pgina darslik va qo‘llanmalarda bir qancha qush nomlari, ularning qo‘llanishi, ruscha va lotincha muqobilari haqida fikr yuritilgan. Masalan, akademik T.Zohidovning “Zoologiya ensiklopediyasi”ning maxsus tomi “Qushlar” deb ataladi. Bu asarda har qaysi qushning o‘zbekcha va lotincha ismidan tashqari, yana uning holati, geografik tarqalishi, yashash hududlari, urchishi, ovqatlanishi, ba’zi bir biologik xususiyatlari, xalq xo‘jaligidagi ahamiyati haqida ma’lumot berilgan. O.Bogdanovning “O‘zbekistonning hayvonot dunyosi” asarida ham yuzga yaqin qushlarning tarqalishi va hayot kechirishi haqida ma’lumotlar bor. Bundan ko‘rinadiki, kelgusida ornitonimlarning leksik –semantik xususiyatlari, etimologiyasi, uslubiy imkoniyatlari, yasalishi, grammatik xususiyatlari kabi masalalarning har biri maxsus kuzatishlarni talab qiladi [8; 34-36-betlar].

Ornitologiya (yunoncha “ornithos” – qush va “logiya” – ta’limot) – umurtqalilar zoologiyasining qushlarni o‘rganadigan bo‘limi. Ornitologiya qushlarning ekologiyasi, biologiyasi, sistematikasi, morfolgiyasi, fiziologiyasi, biogeografiyasi, evolyutsiyasi va amaliy ahamiyatini o‘rganib, bu ma’lumotlardan umum biologik va insoniyatning amaliy faoliyati bilan bog‘liq muammolarni hal etishda foydalanadi. „Ornitologiya” terminini fanga XVI asr oxirida italyan naturalisti U.Aldrovandi kiritgan. Qushlarga bag‘ishlangan birinchi asar „Hayvonlar tarixi”ni Aristotel (mil.avv. 384-322-yillar) yozgan; u 170 tur qushning tuzilishi va hayotini tasvirlab bergan. O‘rta asrlarda lochinlar yordamida ov qilishga qiziqish ancha kuchayganligi tufayli germaniyalik F.Gogenshtaufening “Qushlar bilan ovlash san’ati haqida” asari dunyoga keldi. Asar qushlar to‘g‘risidagi bilimlarni birmuncha kengaytirdi. XVI asrdan boshlab qushlarning anatomik tuzilishi, biologik tasnifi, hayot tarziga oid ma’lumotlar to‘planib boradi.

Turkiston qushlari to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar XIX asrning 1-choragida paydo bo'la boshlagan. Lekin Ornitologiya sohasidagi fundamental tadqiqotlar faqat XX asrdan boshlandi. XX asrning 2-yarmida O'zbekistonda "O'zbekiston faunasi", "O'zbekiston qushlari" kabi yirik monografik asarlar, "Qushlar ensiklopediyasi", "Osiyoda qushlar migratsiyasi" va boshqa bir qancha yirik to'plamlar nashrdan chiqarildi. Respublika ornitologlari xalqaro tashkilotlar va fondlar bilan hamkorlikda biologik xilma-xillikni saqlash, biologik resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida yirik tadqiqotlar olib borishmoqda. Mamlakatda ornitologik tadqiqotlar, asosan, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Zoologiya institutida va oliy o'quv yurtlari qoshidagi zoologiya kafedralarida olib boriladi [6; 568-bet].

XULOSA

Nomlar, qanday obektlarning nomlari bo'lishlaridan qat'iy nazar, qadim tarixga ega bo'lgan xalqning milliy urf-odati va qadriyatlarining bir ko'rinishi. Kishilik jamiyati nomsiz hech bir ishni qila olmaydi. Shuning uchun xalqimizning nom va nomlashga oid qadimiy hamda odatiy an'analarini amalda qo'llab-quvvatlash, shuningdek, davom ettirish bizning burchimizdir.

Toponimlar til lug'at fondining bir qismidir. Shu bilan birgalikda joy nomlari tilning boshqa leksik qatlamlaridan anchagina farq qiladi. Bu farq toponimlarning uzoq yashashida, ularning polikomponentli, ya'ni ko'p komponentlardan – tarkibiy qismdan iborat bo'lishida, har bir tilning ichki qonuniyatlariga ko'ra, toponimlar yasashda turdosh otlar (apellyativlar) ishtirok eta olishida o'z aksini topadi. Zoonimlar haqida ham shunday deyishimiz mumkin. Tilshunoslikning onomastika bo'limi ko'p tarmoqli bo'lib, har bir tarmoq bir qancha ilmiy izlanishlar uchun muhim manba vazifasini o'tay oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Begmatov E., Ablaqulov Ya. Onomastik ko'lam tushunchasi // O'TA.2007. 3-soni.17-21-betlar;
2. Begmatov E., Ablaqulov Ya O'zbek tili onomastikasining mikroko'lami tarkibi // O'TA.2007.5-soni.33-38-betlar;
3. Nafasov T. O'zbekiston toponimikasi. – Toshkent, 1988.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. Madvaliyev A. tahriri ostida. T.: O'zbekiston milliy insiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 159-bet.
5. O'zbekiston milliy insiklopediyasi. "Z" harfi. 4-tom. T.: O'zbekiston milliy insiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 129-bet.
6. O'zbekiston milliy insiklopediyasi. 6-tom. T.: O'zbekiston milliy insiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 568-bet.

7. Zaripov B .P. Zoonimlarning badiiy san’at turlarini hosil qilishdagi ishtiroki(Alisher Navoiy asarlari asosida) f.f.n. NDA. Toshkent: 2002. 7-20 betlar.
8. Qurbonov T, Yo‘ldosheva D “O‘zbek tilida ornitonimlar va ularning o‘rganilishiga doir”/ O‘zbek ilshunosligi masalalari. Samarqand 2004-yil. 34-36 betlar.
9. <https://bilig.academiascience.org/index.php/isepsmj/article/view/641>